

Konstitutsiya hammamizniki



07.04.2023

Konstitutsiya hammamizniki

Bugun "Yer resurslarini boshqarish" fakultetida umumxalq referendumi kun tartibiga kiritilgan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonuni loyihasi targ'ibotiga bag'ishlangan "Konstitutsiya meniki, seniki, bizni! Konstitutsiya o'zimizniki!" shiori hamda "Konstitutsiyada Oliy ta'limga berilgan imkoniyatlar" mavzusida tadbir o'tkazildi. Noan'anaviy uslubdagi o'tkazilgan tadbirida istidodli talaba-yoshlarni, faol ishtiroki yanada ko'tarinkи ruhda tashkil etildi. Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor R.Choriev tadbirni ochib berdi.



O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi yuristlar malakasini oshirish markazi, ta'lim jarayoni sifatini uslubiy ta'minlash monitoring qilish va baholash bo'limi boshlig'i Ishonqulov Ilhom Raxmatovich, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi yuristlar malakasini oshirish markazi kafedra mudiri, professor Sevara Marifovalar boshqalar yangi tahrirdagi Konstitutsianing Yangi O'zbekiston uchun ahamiyati, unga kiritilayotgan qo'shimcha va o'zgarishlar xalqimizning turmush tarzini yanada yaxshilash, inson qadrini yuksaltirishga xizmat qilishini o'z faoliyatlari misolida ta'kidlab, barchani referendumda faol ishtirok etishga chorladi.



Darhaqiqat, 30 aprel kuni bo'lib o'tadigan referendum mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayoti, xalqimiz uchun tarixiy ahamiyatga ega. Boisi, yangilanayotgan Bosh qomusimiz shu muqaddas zaminda tug'ilib o'sgan har bir yurtdoshimizga birdek daxldor. E'tiborlisi shundaki, yangi tahrirda ishlab chiqilgan Konstitutsiyamizda inson huquqlarini kafolatlashga qaratilgan normalar qariyb uch barobarga oshmoqda. "Yerdan foydalanish" kafedrasi mudiri professor A.Altev, bugungi kunda yoshlarga berilayotgan imkoniyatlarni tahlil qilarkan, avvalgi yillarda faqat davlat oliygohlari bo'lgani, bugungi kunda esa davlat va xususiy oliy ta'lim muassasasi faoliyat yuritayotgani, oldinlari faqat bitta oliy o'quv yurtiga hujjat topshirilgan bo'lsa, hozirda bir vaqtning o'zida beshta oliygo imtihonida o'z bilimini sinab ko'rish mumkinligini aytib o'tdi. Shuningdek, endilikda ayol-qizlarga magistraturada o'qish uchun davlat tomonidan kontrakt mablag'lari to'lab berilayotganligini ta'kidladi.



Ushbu tadbirda Yuridik universitetidan ham bir necha iqtidorli talabalar kelib, barcha yoshlarga beriladigan imkoniyatlar xaqida targ'ibot qilib, barcha tengdoshlarini ovoz berishlarini referendumiga befarq bo'lmasliklari to'g'risida gapirib o'tishdi.



Shuningdek, o'tkazilgan tadbir iqtidorli, iste'dodli talaba yoshlarimiz tomonidan tayyorlangan badiiy qism bilan yakunlandi. Ushbu tadbirni tashkil qilgan fakultet jamoasini o'z minnatdorchiligidimizni bildiramiz.

"Yer resurslari va kadastr" fakultetining Yoshlar bilan ishlash buyicha dekan muovini H.Eshova axboroti